

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/10 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIVASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIVAVIY OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuziyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLILIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOYIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOIYILLAR VA IJTIMOYIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoza</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoza Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асаля Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

Received: 20 October 2025
Accepted: 15 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

THE HISTORICAL GENESIS AND DEVELOPMENT FACTORS OF YOUTH ECONOMIC ACTIVITY

Tolipov Bakhtiyor

Independent researcher at Fergana State University,
PhD in Philosophy, Associate Professor

Abstract. This article examines the historical genesis, formation stages, and development factors of youth economic activity. It analyzes the role of young people in the labor market, entrepreneurship, and innovation, as well as the evolution of state policies aimed at supporting their economic initiatives. The study explores the interrelation of historical, social, and institutional factors influencing youth economic participation, emphasizing the importance of education, digital technologies, and a supportive legal environment. The article also focuses on socio-economic mechanisms contributing to the formation of economic thinking and civic responsibility among youth.

Keywords: youth, economic activity, labor market, entrepreneurship, innovation, state policy, socio-economic factors.

YOSHLAR IQTISODIY FAOLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI

Tolipov Baxtiyor

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar iqtisodiy faolligining tarixiy genezisi, uning shakllanish bosqichlari va rivojlanish omillari tahlil qilingan. Unda yoshlarning mehnat bozori, tadbirkorlik va innovatsion faoliyatdagi o'rni, shuningdek, ularning iqtisodiy tashabbusini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining evolyutsiyasi yoritilgan. Tadqiqotda tarixiy, ijtimoiy va institutsional omillar o'zaro bog'liq holda o'rganilib, yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirishda ta'lim, raqamli texnologiyalar va huquqiy muhitning roli alohida ko'rsatib o'tilgan. Maqola yoshlar iqtisodiy tafakkuri va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, iqtisodiy faollik, mehnat bozori, tadbirkorlik, innovatsiya, davlat siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy omillar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N32>

Kirish. Ijtimoiy taraqqiyotning har qanday bosqichida bozor munosabatlari fenomeni ilm-fan vakillari tomonidan o'rganilib, «bozor» tushunchasi mazmuniga aniqlik kiritishga harakat qilingan. Yuzaki qaraganda, bozor aksiomatik mazmunga ega, kompleks-sistemali o'rganilgan va ilmiy tahlilga muhtoj bo'lmagan ijtimoiy-tarixiy hodisadek ko'rinadi. Vaholanki, uning strukturaviy tuzilishi, funksional yo'nalishlari, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, paradigmalar o'zgarishlari dinamikasi, ijtimoiy fanlar vakillari, shular qatorida faylasuflar tomonidan ham "bozor" kompleks ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida tadqiqot obyektiga aylantirilgan.

Bu murakkab jarayon nisbatan tizimli o'rganilishiga qaramasdan, uning mazmun-mohiyatida, hali aniqlanmagan, ilmiy jihatdan asoslanmagan holatlar mavjudligi, quyidagi sabablar bilan izohlanadi: birinchidan, bozor iqtisodiyoti fenomeni, nisbatan konservativ, turg'un bo'lsa ham, uning mohiyati, shakllari, funksiyasi, ahamiyati jamiyat taraqqiyoti darajalariga mos doimiy o'zgarib turadi va hamma vaqt ham, ilmiy tadqiqotchilar tomonidan ilg'ab olinmaydi; ikkinchidan, bozor munosabatlarining obyektiv rivojlanish qonuniyatlari, harakatlantiruvchi motivlari, mexanizmlari, konyukturasidagi o'zgaruvchanlik, shaxsning ehtiyojlari va manfaatlariga, ya'ni dinamik o'zgaruvchan subyektiv omillar tizimiga chambarchas bog'liq; uchinchidan, bozor infrastrukturasi, kommunikatsiyasi, subyektlari tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarini ilmiy falsafiy tahlil qilishning usul va vositalari, nazariy-metodologik asoslari, texnologiyasi, tushuncha va kategorial apparati mukammallik hamda adekvatlikdan yiroq; to'rtinchidan, bozor iqtisodiyoti haqidagi ilmiy nazariyalar, g'oyalar, ta'limotlar muqobilligi, individual yoki korporativ manfaatlar bilan bog'liqligidan, ularning umumiy konsensusi asosida, universal konseptual nazariyalar, ta'limotlar sistemasi vujudga kelishini murakkablashtirmoqda; beshinchidan, bozor munosabatlarini determinlashtiruvchi obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar kompleksiga sistemali ilmiy differensial yondashuv metodologiyasi nochorligidan haqiqatdan uzoq bo'lgan, aksariyat holatlarda utopik nazariyalar yaratilmoqda.

Materiallar va metodlar. XX asrda bozor munosabatlari mavzusi tadqiqoti: nazariyasi va metodologiyasi tahlilida, faylasuf olimlar tomonidan muayyan ilmiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, bu mavzuni yoritishning turli muqobil falsafiy yondashuv tamoyillari, yo'nalishlari aniqlandi va konkretlashtirildi. Endi shu tamoyillar asosida «zamonaviy bozor» tushunchasi mazmuni, mohiyati va vazifalarini aniqlashning umumfalsafiy metodologik, nazariy-konseptual asoslarini o'rganish ijtimoiy falsafa fani vakillari oldidagi dolzarb ilmiy muammo bo'lib turibdi. Zero, bu ilmiy mavzu tadqiqoti jarayonida, bozor munosabatlari tushunchasi obyekti bo'lgan ijtimoiy hodisaning retrospektiv asoslarini, genezisini, harakatlantiruvchi motiv va mexanizmlari tizimini aniqlash –zamonamizning dolzarb savollarga javob topishga asos bo'ladi. Shuning uchun mavzu tarixiga doir turli fan sohalari tadqiqot natijalarini falsafiy jihatdan umumlashtirish, faqat ajdodlar tarixini o'rganishga emas, balki kelajak avlodlarning istiqbol strategik vazifalarini belgilashga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. Insoniyatning iqtisodiy-falsafiy tafakkuri rivojiga tarixiylik va mantiqiylik jihatidan nazar solsak, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tarixida iqtisodiy faoliyat yuritishning uchta sinalgan yo'li mavjud bo'lganligini ko'rish mumkin.

Birinchisi, an'anaviy iqtisodiy faoliyat yuritish yo'li bo'lib, u insonning tabiatdan o'zini ajratib, qo'l kuchiga tayangan holda agrar xarakterdagi natural xo'jalik yuritishga asoslangan, iqtisodiy odatlar va ko'nikmalar avloddan-avlodga o'tib, uzoq vaqt saqlanib qolgan, ko'proq avtarkizm, konservatizm g'oyalari hukmronligi bilan ifodalanadi. Bu o'z boshidan og'ir jismoniy mehnat, jamoatchilik, xususiy mulkchilik, katta yer egaligi, tovar-pul munosabatlarining sirlarini chuqur anglamaslik, moddiy boyliklarni ko'proq o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlar keltirib chiqargan ijtimoiy mazmundagi ziddiyat, iztirob va quvonchlarni boshdan kechirib, asta-sekin o'z negizida bozor tizimining paydo bo'lishiga, rivojlanishiga yo'l ochib bergan eng uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar silsilasini o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham bu yo'lni olimlar mamlakatlarning iqtisodiy faoliyatida «an'anaviy iqtisodiyot» tizimi hukmronlik qilgan davr deb atashadi. Mazkur tizimga iqtisodchi olimlar tomonidan «An'anaviy-mumtoz

iqtisodiyot – bu o'ta zaif ishlab chiqarish omillariga tayangan, kam unumli natural ishlab chiqarishga, an'analar shakliga kirgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga asoslangan iqtisodiyotdir»[1], degan ta'rif berilgan.

Ikkinchisi bu bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot yo'li bo'lib, u mamlakat iqtisodiy faoliyatini tabiat va jamiyatning obyektiv rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olib, bozor iqtisodiyotini yo'lga qo'yish asosida shaxsning ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib, uzoqni ko'zlab, ilmiy asosda, oqilona tarzda tashkil etish bo'lib, u har kimning erkin samarali mehnat qilishiga, o'z mehnati natijalaridan bahramand bo'lib boy-badavlat yashashiga olib kelgan. Bunday faoliyat yuritish har qanday jamiyatda tinchlikni qaror toptirib, uning barqaror rivojlanishini ta'minlagan. Buni aksariyat xalqlar iqtisodiy faoliyat yuritishning «bozor iqtisodiyoti» yo'li, usuli sifatida tan olishgan.

Uchinchisi bu totalitar-rejali iqtisodiyot yo'li bo'lib, u mamlakatda iqtisodiy faoliyat yuritishni tabiat va jamiyatning obyektiv rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olmagan holda, faqat davlat manfaatini ko'zlab, subyektiv-volyuntaristik tarzda, uzoqni ko'zlamasdan tartibsiz tarzda tashkillashtirib, odamlarni majburiy mehnat qurboniga aylantirib, o'z mehnatlaridan naf ko'rmasdan, kambag'al-qashshoq holda yashashga majbur qilgan. Bu esa oxir oqibatda jamiyat a'zolarini samarasiz mehnat qilishga, ularda boqimandalik va loqaydlik kayfiyatini shakllanishiga, natijada, jamiyatning inqirozga yuz tutishiga olib kelgan. Shuning uchun ham bu yo'lni iqtisodiy faoliyat yuritishning bitta markazdan turib boshqaruvchi ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan «totalitar-rejali iqtisodiyot»shakli, usuli deyiladi. Bu masalani chuqur tahlil qilgan jamiyatshunos olimlar "Totalitar-rejali iqtisodiyot – bu davlatlashtirilgan, ijtimoiy mulkka tayangan, bir markazdan turib rejalashtirishga va boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullariga asoslangan iqtisodiyotdir"[2], degan xulosaga kelgan. Sobiq tuzumdagi iqtisodiy faoliyat yuritish ana shunga asoslangan edi.

Mavjud ensiklopedik va falsafiy ilmiy adabiyotlarda bozor munosabatlari tushunchasi mazmuniga iqtisodiy determinizm nuqtai nazaridan yondashish ustuvorligi sababli, uning falsafiy mohiyati to'liq ochib berilmagan. Chunki bozor iqtisodiyoti tushunchasini sof iqtisodiy kategoriyalar kontekstida tahlil qilish, uning ijtimoiy munosabatlarni: konsentrlashtiruvchi, integratsiyalashtiruvchi, identifikatsiyalashtiruvchi funksiyasini e'tibordan chetda qoldirishga olib keladi. Ya'ni uni iqtisodiy munosabatlar, xususan ishlab chiqaruvchi va iste'molchining sotdi-xarid qildi, natural ayriboshlash, talab va taklif «makoni»sifatida talqin qilish, o'rganilayotgan obyektning tizimlashtirilgan tahliliga va umumlashgan falsafiy xulosalar chiqarishiga xalaqit beradi. Shuning uchun bu ijtimoiy hodisaga, uning subyektlari, xususan institutsional tizimi elementlari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni (bir-biridan nisbatan mustaqil): tashkillashtiruvchi, boshqaruvchi, nazorat qiluvchi va ularning usul-vositalarini, mexanizmlarini takomillashtiruvchi maxsus institut sifatida yondashish maqsadga muvofiq. Uning nazariy va metodologik asosi ilmiyligiga – bozor infrastrukturasi tizimini ijtimoiy falsafaning qonunlari, kategoriyalari tizimi kontekstida tahlil qilishni tashkillashtirish natijasida erishish mumkin.

Iqtisodiy tafakkur, ijtimoiy falsafiy qarashlar tarixida «bozor» tushunchasiga mavjud bo'lgan real ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli mazmundagi ta'riflar berilgan. Ular tarixiylik va mantiqiylik asosida falsafiy jihatdan tahlil qilinadigan bo'lsa, "bozor" tushunchasining mohiyati va mazmuni haqida uchta falsafiy paradigma shakllangan.

Birinchi paradigma. “Bozor – bu xaridorlar va sotuvchilar uchrashib savdo bitimlarini amalga oshirish uchun to‘planadigan maxsus joy”, degan falsafiy tushuncha, uning mohiyati va mazmunini yoritishga, amalda qo‘llashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy qarashlar tizimini o‘z ichiga oladi.

Tarixiylik va vorisiylik nuqtai nazaridan qaraganda, mamlakatimizda hozirgi kunda ham «bozor»ni shunday mazmunda tushunish ayrim hollarda, kishilar ongida saqlanib qolgan. Jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “Bozor forscha – bozor, savdo rastasi, degan so‘zdan olinganligi ta’kidlangan holda:

- 1) aholi savdo-sotiq qiladigan maxsus joy; 2) shunday joyda savdo-sotiq qilinadigan kun;
- 3) ko‘chirma ma’noda g‘ala-g‘ovur, chug‘ur-chug‘ur, shovqin-suron, sho‘xlik holati;

4) sotuvchilar bilan xaridorlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlash munosabatlari; 5) ko‘chma ma’noda taqdir, qismat;

6) ko‘chma ma’noda biror harakat yoki faoliyatning haddan oshishi, avjga chiqishi, qizishi”[3], degan ma’nolarni anglatishi ko‘rsatib o‘tilgan. Demak, «bozor» tushunchasi kundalik ma’noda asosan savdo-sotiq qiladigan joyni anglatish uchun ishlatiladi. Bunga, mamlakatimizda xaridorlar va sotuvchilarning uchrashib savdo bitimlarini amalga oshirish uchun to‘planadigan maxsus joy sifatida minglab bozorlarning mavjudligini ta’kidlash mumkin.

Ikkinchi paradigma. “Bozor – bu talab va taklifning bir-biriga nafli o‘zaro ta’sir qilish usuli”, degan falsafiy tushuncha, uning mohiyati va mazmunini yoritishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy qarashlar va amaliy xatti-harakatlar tizimini qamrab olganligi bilan ifodalanadi. Bu paradigmaning asosiy tamoyillari Eng yangi davr (XIX asr oxiri-XX asrning o‘rtalari)da ijod qilgan mashhur iqtisodchilar A.Marshall (1842-1924), J.B.Klarik (1847-1938) kabilarning asarlarida neoklassik ta’limot sifatida ilgari surilgan edi.

Uchinchi paradigma. “Bozor – bu iqtisodiy agentlarning sirtqi ta’sir emas, balki ichki sabab natijasida vujudga keladigan o‘z-o‘zidan yuz beradigan tartibsiz harakatlarini muvofiqlashtirish usuli” degan falsafiy tushuncha, uning mohiyati va mazmunini institut sifatida yoritishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy qarashlar va amaliy xatti-harakatlar tizimini qamrab olganligi bilan ifodalanadi. Bu paradigmaning asosiy g‘oyalari yirik iqtisodchi faylasuflar A.Lou, G.Myurdal, J.K.Gelbreyt, R.Xeylbronerlar tomonidan «iqtisodiy faoliyat yurituvchi institut» sifatida ishlab chiqilgan. So’ngra bu paradigma kuchli iqtisodchi olimlar V.Rebke, V.Oyken, L.F.Mizes, F.Xayek, Lyudvig Erxard, R.I.Lukas tomonidan «ijtimoiy bozor xo‘jaligi» konsepsiyasini ishlab chiqish, takomillashtirish va uni amaliyotda qo‘llash mexanizmlari nazariyasi yanada boyitildi.

Umuman, zamonaviy falsafa fanida turli muqobil nazariyalar yaratilgan bo‘lsa ham, iqtisodiyot tarixida bozorning dinamik o‘zgaruvchan funksiyalarini o‘rganuvchi ilmiy tizimlarni va metodlarni takomillashtirish masalalari yechimini topish, hozircha ochiq qolmoqda. Chunki bozor munosabatlarini jamiyatning, funksional jihatdan, universal, analitik modeli sifatida tadqiq qilib, uning mazmuni, mohiyatini ilmiy izohlashdagi murakkabliklar, chigalliklar muayyan obyektiv-subyektiv sabablar bilan izohlanadi. Xususan: birinchidan, mavjud obyektiv iqtisodiy qonunlarga, ichki va tashqi «bozor taqsimoti» kontekstida differensial yondashish tamoyillari va mezonlarini aniqlashda fikrlar, xulosalar tarqoqligi mavjud.

Ikkinchidan, hozir amaldagi bozor iqtisodiyotida shakllangan xo‘jalik yuritish faoliyatida real bozor strukturasi elementlari o‘rtasidagi munosabatlar o‘zgarishi dinamik xarakterga ega bo‘lib, jamiyatshunoslik fanlari uning rivojlanishidan orqada qolmoqda. Uchinchidan, falsafiy

nuqtai nazarda bozor iqtisodiyotini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi, obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillarning ilmiy asoslangan aniq klassifikatsiyasi yaratilmagan. To'rtinchidan, bozor munosabatlarining mavjud holati va rivojlanish tendensiyasini tavsiflovchi empirik faktlar, statistik ma'lumotlar hamma vaqt ham, obyektiv real voqelikka adekvat emas. Beshinchidan, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini tashkillashtirish va boshqarish mexanizmi individual-xususiy mafkuraga ta'sir etuvchi kuchlar hukmronligidan to'liq xalos bo'lmagan.

Xulosa. «Bozor» kategoriyasi, qadimdan savdo-sotiq bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni mujassamlashtiruvchi makonning iqtisodiy determinizmga asoslangan universal modeli sifatida izohlangan. Vaholanki bozor ijtimoiy hodisasi, uni tashkil qilgan strukturaviy elementlarning oddiy, mexanik tarzda umumlashgan va turg'un holati emas.

Ta'kidlash lozimki, bozor mukammal ijtimoiy tizimning, turli elementlari munosabatlarini konkretlashtiradigan, manfaatlashtiradigan va ularni namoyon qiladigan, nisbatan universal ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Bu ijtimoiy tizimning har bir elementi, o'ziga xos funksiyaga ega bo'lib, ularni o'zaro aloqadorlikda kompleks-sistemali o'rganish bozor munosabatlarining mazmun-mohiyati haqida, nisbatan mukammal, ilmiy asoslangan tasavvurlarga sabab bo'ladi. Bozor munosabatlarining murakkab «konstruksiya» va «arxitektura»ni kompleks-sistemali o'rganish, bir tomondan, uning ayrim jihatlari, rivojlantiruvchi obyektiv shart-sharoitlarini, subyektiv omillar ta'sirini mavhumlashtirishni istisno qilmaydi. Aksincha, ilmiy bilishda bu usulni qo'llash bozor hodisasining dinamik o'zgaruvchanligi umumiy qonuniyatlarini izohlashga yordam beradi. Lekin, ikkinchi tomondan, uni tarixiy voqelikdan ajratib, ayrim (aksariyat holatlarda, "ikkinchi darajali") xususiyatlarini mutlaqlashtirish, bozor nazariyasi, g'oyasi universalligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu xulosalardan kelib chiqib, qayd etish mumkinki, hozirgacha bozor hodisasiga iqtisodchilar, faylasuflar va boshqa fanlar vakillarining xususiy yondashuvlari, uning ayrim elementlarini, funksiyalarini mustaqil o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlari, bozor fenomenini muayyan tarixiy zamon, ijtimoiy makon chegarasida fragmentar izohlashga olib keladi. Shuning uchun, bozorning ijtimoiy munosabatlarni (manfaatlardan qat'iy nazar) konsentrlashtiruvchi, integratsiyalashtiruvchi, universallashtiruvchi xususiyatlarini, ya'ni uni o'rganuvchi turli fanlar tadqiqot natijalarini tizimlashtiradigan «bozor falsafasi»ning fundamental-konseptual nazariy asoslarini yaratish, metodologik tamoyillarini aniqlash masalasi dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. –Toshkent: Sharq, 2006. –B.78.
2. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. –Toshkent: Sharq, 2006. –B.83.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. –Toshkent: «O'zbek milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –B.298–299.
4. Green, Francis. *Youth Entrepreneurship*. OECD LEED Papers, No. 2013/18. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), 2013. https://www.oecd.org/en/publications/youth-entrepreneurship_e523decb-en.html
5. Raikhanova, Gulzhan. "Problems of Generating Productive Employment in the Youth Labor Market as a Dominant Risk Reduction Factor for the NEET Youth Segment in Kazakhstan." *Economies*, vol. 11, no. 4, 2023, p. 116. MDPI. <https://www.mdpi.com/2227-7099/11/4/116>

6. Zhartay, Zhanar, Janna Khussainova va Bauyrzhan Yessengeldin. "Development of the Youth Entrepreneurship: Example of Kazakhstan." *Economy Series of Scientific Research Institute Journal*, vol. 8, no. 1, 2020, pp. 1190–1208.
<https://ideas.repec.org/a/ssi/jouesi/v8y2020i1p1190-1208.html>
7. Talipov, Baxtiyor. "Innovatsion raqobat muhiti sharoitida yoshlar iqtisodiy faolligining o'ziga xos jihatlari." *Central Asian Journal of Law and Political Science*, t. 5, № 2, 2024.
<https://cajlp.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/1241>
8. Aymatova, Farida va Nargiza Aytiniyazova. "Yoshlar iqtisodiy ta'limi – mamlakat kelajagining poydevori sifatida." *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali*, t. 3, № 1, 2024.
<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5056>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).